



NAVOIY VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH

Bahronova Shahodat Baxshulloyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholini bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilashga, kichik biznes va tadbirkorlikni faollashtirishga, innovatsion g'oyalarni keng joriy etishga va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tiborni qaratish va shu kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik Aholi bandligi, sanoat qurilish chakana savdo eksport investitsiya, likvidlilik, foyda, capital, soliq yuki.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini yuritishlari uchun qator qulaylik va imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbirkorlarga yaratilgan imtiyoz va engilliklar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, farovon turmushini ta'minlashda muhim o'rin tutuyotgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. SHuning uchun ham o'z nutqlarida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: "Yagona yo'limiz –tadbirkorlar sonini ko'paytirish odamlarni ishbilarmon qilish! Har bir hokim byudjetga qo'shimcha daromadlarni ta'minlashi uchun o'zi izlanishi, tadbirkorga sharoit yaratib, biznes vakillari bilan yelkama-yelka ishlashi kerak,- deb ko'p bora ta'kidlab o'tganlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun va hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yil ichida Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan.


Jumladan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilash maqsadida 2021-yil 27-martda qabul qilingan "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezidentimizning 504-sonli Qarori qabul qilindi. [1]

Yuqoridagi qaror asosida bir qancha muammolarni hal etish hamda kerakli shart-sharoitlarni yaratishga erishish mumkin. Aholini kambag'allikdan xalos etish, ya'ni mehnatga layoqatli iqtidorli aholi qatlamiga ish o'rnlari yaratish orqali o'z g'oya va yangiliklarini ro'yobga chiqarishi, daromad olish manbalarini kengaytirish asosida turmush farovonligini yaxshilashi,



kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘li bilan ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faol sub’ektlariga aylanishinshiga imkon beradi. Shuni ham ta’kidlash zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o‘zining ijobiy ifodasini topmoqda. [6]

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
 (2021 yil 1 iyul holatida)**



Mazkur qarorda o‘zini o‘zi band qiladigan fuqarolarga ayrim turdagi faoliyatni amalga oshirish (kasanachilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zaruriy xom ashyo, ehtiyot qism hamda qurilish mollari sotib olish) maqsadida 5 mln so‘mgacha miqdorida kredit mablag‘lari naqd pulda berilishi ko‘zda tutilgan. Bu orqali «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Temir daftar»ga kiritilgan fuqarolarga ajratilgan kreditlar tadbirkorlikni rivojlantirishni tubdan yaxshilash, xususiy mulkchilik darajasi va ahamiyatini oshirish, davlatning iqtisodiyotda, shu jumladan davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik qilish uchun shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, tadbirkorlikka ishonchli himoyani ta‘minlash va erkinlik berish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga aholining tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qiziqishi hamda manfaatdorligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli farmonida ta’kidlab o‘tish kerakki, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga olish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib amaliyotga tadbiriq etilmoqda. [2] Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatning ta’sir qilish imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha mamlakatimiz tajribasining ko‘rsatishicha, keyingi yillarda tadbirkorlikni yetarli darajada jiddiy rivojlanishi ta’minlandi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o‘rinlari yaratish imkonini beradigan




davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar hamda tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, uy xo'jaligi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini mikromoliyalash amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq.

Buni birgina Navoiy viloyati miqiyosida ko'radigan bo'lsak, 2020-2021- yil yanvar-iyun holatiga faoliyat olib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi anchagina qismini egallaydi.

2020-2021 yil yanvar-iyun oylari Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi haqida ma'lumot

	Sanoat		Qishloq xo'jaligi		Asosiy kapitalga investitsiyalar		Qurilish		Chakana savdo		Jami xizmat		Eksportdagi ulushi	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021	2020	2021	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Viloyat bo'yicha	6,6	6,1	98,0	98,4	28,1	48,3	73,0	77,3	82,4	83,9	57,7	58,4	14,7	10,0
Navoiy shahri	1,9	1,7	98,8	98,4	12,7	42,5	76,3	83,7	52,5	64,9	35,6	36,0	1,3	1,4
Zarafshon shahri	99,9	99,0	99,8	99,9	62,1	65,5	13,8	30,7	97,8	95,9	57,4	58,8	96,7	99,4
Karmana tumani	16,9	15,9	97,6	98,6	45,3	93,5	98,4	97,6	97,1	83,4	60,3	61,6	40,5	21,8
Konimex tumani	100,0	100,0	91,5	90,5	8,0	15,4	66,1	100,0	96,5	96,7	82,4	85,9	100,0	89,7
Qiziltepa tumani	81,5	81,0	99,4	98,9	72,2	78,7	91,9	72,1	98,9	98,2	73,9	76,6	24,1	97,7
Navbahor tumani	60,7	48,1	99,7	99,4	80,5	77,2	100,0	100,0	99,7	87,4	76,4	78,0	64,1	11,3
Nurota tumani	99,5	96,2	93,1	96,8	92,8	87,7	100,0	100,0	99,3	98,6	67,1	68,5	100,0	96,9
Tomdi tumani	100,0	100,0	99,6	99,6	1,9	1,2	100,0	100,0	99,4	99,1	88,2	90,3	100,0	100,0
Uchquduq tumani	100,0	100,0	99,7	99,7	38,6	69,9	100,0	100,0	99,9	99,0	81,1	82,3	99,6	3,1
Xatirchi tumani	44,2	39,7	98,6	99,1	78,7	94,2	84,2	96,6	97,7	98,9	78,5	80,7	58,0	8,5



2020-2021 yil yanvar-iyun oylari Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushlari sezilarli darajada o'zgargan. Birgina qishloq xo'jaligi sohasining 98.4 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etadi. O'tgan yilgi xuddi shu davrga nisbatan 0.4 foiz o'sgan. Qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar 73 foiz 2021 yil 1 iyun holatida 77,3 foizga, chakana savdoda esa 82,4 foiz 83,9 foizga jami xizmat turida esa 57,7 foiz 58,4 foizga ko'tarilgan. 2020 yil 28,1 foiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy kapitalga investitsiyalar ajratilgan bo'lsa 2021 yil 48,3 foizga chiqqan.

Navoiy viloyatida yirik sanoat korxonalari mavjudligi sababli bu sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati uncha keng yoyilmagan. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 6,1 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiyotimizni rivojlanishida eksportni o'rni beqiyos. Navoiy viloyatida eksportdagi ulushi 2021-yil 1-iyul holatida 10 foizni tashkil qilgan. [7]

Viloyatda ro'yhatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining barqaror o'sishi ta'minlanmoqda. Xususan, 2021 yil 1 iyul holatiga ularning soni 20371 ta bo'lib, Respublikada hudud ulushi 4.3 foizni tashkil qilgan. Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarini rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021 yil yanvardan 1-iyunda yangidan tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari tashkil qilinib, hududning ushbu ko'rsatkich bo'yicha ulushi 4.4 foizga ortgan. [7]



**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub’ektlari
 (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 2021 yil 1 iyul holatiga**

	Jami	Respublikada gi ulushi, %	Faoliyat yuritayotgan	Respublikada gi ulushi, %	2021 yil yanvar- iyunda yangida n tashkil etilgan	Respublikada gi ulushi, %	1000 kishi hisobig a subektlar soni
O‘zbekiston Respublikasi	478451	100,0	450155	100,0	53042	100,0	16,7
Qaraqalpog‘iston Respublikasi	20732	4,3	19625	4,4	2366	4,5	14,4
Andijon viloyati	38224	8,0	34579	7,7	3054	5,8	14,2
Buxoro viloyati	28036	5,9	26421	5,9	3058	5,8	18,2
Jizzax viloyati	20578	4,3	19314	4,3	2444	4,6	20,0
Qashqadaryo viloyati	31937	6,7	30644	6,8	6498	12,2	15,8
Navoiy viloyati	20371	4,3	19322	4,3	2323	4,4	22,3
Namangan viloyati	30063	6,3	29118	6,5	3411	6,4	12,6
Samarqand viloyati	39528	8,3	37581	8,3	5147	9,7	12,9
Surxondaryo viloyati	25036	5,2	23683	5,2	3240	6,1	11,7
Sirdaryo viloyati	15074	3,1	14094	3,1	1312	2,5	22,3
Toshkent viloyati	49376	10,3	43382	9,6	4580	8,6	18,4
Farg‘ona viloyati	40382	8,4	38734	8,6	4515	8,5	14,6
Xorazm viloyati	21954	4,6	20587	4,6	2328	4,4	13,6
Toshkent shahri	97160	20,3	93071	20,7	8766	16,5	34,0

Darhaqiqat, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini kafolatlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mulkdorlar sinfi salohiyatining yuksalishini ta’minlamoqda.

Navoiy viloyatida Ayni paytda 2021-yil 1-iyul holatida ro‘yxatdan o‘tgan jami 22665 ta yuridik shaxslarning 20371 tasi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 90 foizga etgani, ushbu sektorda aholining 50 foizdan ortig‘i mehnat qilayotgani, shahar va qishloqlarimizning ijtimoiy infratuzilmasi taraqqiy etishida mulkdorlar salmoqli ulush qo‘shayotgani, mavjud barcha xo‘jalik sub’ektining 90 foizdan



ziyodini kichik biznes korxonalarini tashkil etishi fikrimiz dalilidir. Joriy yilning birinchi yarmida 2323 ta yangi kichik biznes sub'ekti faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,3 foiz ko'p demakdir. E'tiborlisi, mazkur sub'ektlarda minglab fuqarolarning bandligi ta'minlanib, munosib turmush kechirishi uchun moddiy imkoniyat yaratib berildi. [3]

Hozirgi vaqtda iqtisodiy faol aholining 65-75 foizi xususiy sektorda bandligini inobatga olib, bu sektorda faoliyat yuritish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishit yanada samarali mexanizm ishlashini taqozo etadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish jabhalaridagi muammolarni hal etish va tegishlichora-tadbirlarini ko'rib borish har birimizning vazifamizga aylanishi kerak. [4]

Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda ishlabchiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

Soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini avtomatlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar ko'rish. [5]

Shu nuqtai nazardan olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni erkin faoliyatlari uchun ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasida quyidagi choralarni qo'rish maqsadga muvofiqdir, xususan:

- har bir hududiy miqyosdan kelib chiqqan holda mahalliy boshqaruv
- idoralari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni qo'llash;
- kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida mahsulot eksportini kuchaytirish va bu yo'nalishdagi muammolarni hal etish;
- kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini uchun investitsiyalar joriy etishni yanada kengaytirish va bunga ko'maklashish;
- xorijiy investitsiyalarni kiritishda salohiyatli investorlarga e'tibor qaratish va ulardan modernizatsiya jarayonlarida unumli foydalanish;
- xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va davlat tomonidan ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashga erishish.

Bulardan tashqari, tadbirkorlar uchun qulaylikni oshirish maqsadida ayniqsa, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qurilish uchun ruxsatnomalar olish, elektr ta'minoti tizimiga ulanish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish.

Yuqoridagilardan iborat chora-tadbirlar mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi deb hisoblaymiz. Kichik biznes va tadbirkorlikni faollashtirishga, innovatsion g'oyalarni keng joriy etishga va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tiborni qaratish bu kabi muammolarni bartaraf etishga olib keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martda qabul qilingan “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-504 sonli Qarori
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi.“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-5975-son
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. –T.: O`zbekiston, 2017.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. 1-jild. –T.: O`zbekiston, NMIU, 2017. –
6. www.lex.uz. – O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi.
7. <https://review.uz/uz/post/navoiy>